


# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

## MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Turkiston tibbiyot jurnali (1922 yy.), O'rta Osiyo tibbiyot jurnali (1925 yy.)



# O'ZBEKISTON TIBBIYOT JURNALI



## ОГЛАВЛЕНИЕ – МУНДАРИЖА

### ОРГАНИЗАЦИЯ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ

**Nurmatov B.Q., Raximov B.B., Shodmanov B.B.** / COVID-19ni davolashga ixtisoslashgan shifoxona mehnat muhitini tibbiyot xodimlari salomatligiga ta'sirini anketa-so'rovnomalari orqali baholash ..... 12

**Усмонов И.Х., Исандарова И.М.** / Ёмон сифатли ўсмалар ва ўпка туберкулёзининг биргаликда кечишига хос хусусиятлар ва ташҳис қўйишдаги қийинчиликлар ..... 19

**Нарзуллаева Д.У., Бобоха Л.Ю., Бузруков Б.Т.** / Аспекты родительской приверженности у детей с глаукомой ..... 30

**Шеркулов К.У., Давлатов С.С., Рахманов К.Э., Усмонкулов М.К.** / Алгоритм ведения больных сложными свищами прямой кишки ..... 35

### КЛИНИЧЕСКАЯ МЕДИЦИНА

**Ахматова Г.Р., Наврузова Ш.И.** / Цитокиновый статус при цервикальных заболеваниях, ассоциированных вирусом папилломы человека ..... 44

**Komilova M.O., Boboev Q.T., Zufarova Sh.A., Yuldasheva A.S.** / Homilador ayollarda COVID-19 patogenezida IL-10 geni RS1800896 polimorfizmining roli ..... 48

**Абдурахмонов Ж.Н., Бобомуратов Т.А., Шарипова О.А.** / Ўткир пневмония билан касалланган эрта ёшдаги болаларда организмнинг вегетатив таъминланишини клиник хусусиятлари ..... 54

**Курбаниязов З.Б., Сайдмурадов К.Б., Арзиев И.А.** / Ўткир йирингли холангитни комплекс хирургик даволаш тактик–техник жиҳатларини оптималлаштириш ..... 64

**Sadikova N.G., Najmutdinova D.K., Boboyev K.T.** / Qandli diabet 2 tur bemorlarida diabetik avtonom neyropatiyaning kardiovaskulyar shaklini rivojlanishida EDN1 genida Lys198Asn ning allel va genotipik variantlarini ta'siri ..... 70

**Бадридина Б.К.** / Анализ лечения больных с диабетической нефропатией в зависимости от стадии хронической болезни почек ..... 78

**Каримов Ш.И., Юлбарисов А.А., Ахматов О.М., Алиджанов Х.К., Носиржонов Б.Т.** / Ички уйқу артерияси окклюзияси бўлган bemорларда ташқи уйқу артерияси пластикасидан кейинги даврда когнитив дисфункцияларни тикланиш самарадорлигини баҳолаш ..... 84

**Тураев Т.Т.** / Оценка клинико-лабораторных признаков при атипичной пневмонии у детей с учетом возраста ..... 94

**Шеркулов К.У., Давлатов С.С., Рахманов К.Э., Усмонкулов М.К.** / Результаты хирургического лечения больных с транссфинктерными свищами прямой кишки ..... 101

# ОРГАНИЗАЦИЯ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ

УДК: 613.6.01–614.29:578.834.1

Nurmatov Baxriddin Qo'ziboy o'g'li – mustaqil izlanuvchi, assistent

Raximov Baxodir Baxtiyor o'g'li – t.f.d., dotsent

Shodmanov Baxtiyor Baxromaliyevich – assistent

**COVID-19NI DAVOLASHGA IXTISOSLASHGAN SHIFOXONA MEHNAT MUHITINI  
TIBBIYOT XODIMLARI SALOMATLIGIGA TA'SIRINI ANKETA-SO'ROVNOMALARI ORQALI  
BAHOLASH**

*Toshkent tibbiyot akademiyasi (Toshkent, O'zbekiston)*

Нурматов Бахриддин Кузибай угли – соискатель, ассистент

Рахимов Баходир Бахтиёр угли – т.ф.д., доцент

Шодманов Бахтиёр Бахромалиевич – ассистент

**ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ РАБОЧЕЙ СРЕДЫ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННОЙ БОЛЬНИЦЫ ДЛЯ  
ЛЕЧЕНИЯ COVID-19 НА ЗДОРОВЬЕ МЕДИЦИНСКОГО ПЕРСОНАЛА С ПОМОЩЬЮ  
АНКЕТЫ**

*Ташкентская медицинская академия (Ташкент, Узбекистан)*

Nurmatov Bakhriddin Kuziboy ugli – researcher, assistant

Rakhimov Bakhodir Bakhtiyor ugli – D.M.Sc., associate professor

Shodmanov Baxtiyor Bakhromaliyevich – assistant

**ASSESSMENT OF THE IMPACT OF THE WORKING ENVIRONMENT OF A SPECIALIZED  
HOSPITAL FOR THE TREATMENT OF COVID-19 ON THE HEALTH OF MEDICAL STAFF  
USING A QUESTIONNAIRE.**

*Tashkent medical academy (Tashkent, Uzbekistan)*

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqotning maqsadi - COVID-19 bilan kasallangan bemorlarni davolovchi va parvarishlovchi tibbiyot xodimlari mehnat sharoitlarini o'rganish va natijada ular salomatligini muhofaza qilishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqish. Anketa-so'rovnomalariiga 75 nafar COVID-19ni davolashga ixtisoslashgan kasalxona xodimlari, yani umumiy xodimlar sonining kamida 15 % qamrab olindi qamrab olindi. COVID-19 bilan kasallangan bemorlarni davolashga ixtisoslashgan kasalxona xodimlari anketa-so'rovnomalari yordamida kasallikni yuqtirib olishi xavfiyuqori bo'lgan holatlar aniqlandi va ular salomatligini muhofaza qilishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** COVID-19, mehnat jarayoni, mehnat sharoitlari, xodimlar salomatligi, anketa-so'rovnomalari.

**Аннотация:** Целью данного исследования является изучение условий труда медицинских работников, осуществляющих лечение и уход за больными, инфицированными COVID-19, и, как следствие, разработка мер по охране их здоровья. В анкеты были включены 75 сотрудников больницы, специализирующихся на лечении COVID-19, то есть не менее 15% от общего числа сотрудников. С помощью анкетирования сотрудники больницы, специализирующиеся на лечении пациентов, инфицированных COVID-19, выявили случаи с высоким риском заражения заболеванием и разработали меры по защите их здоровья.

**Ключевые слова:** COVID-19, трудовой процесс, условия труда, здоровье работников, анкеты.

**Abstract:** The purpose of this study is to study the working conditions of medical workers treating and caring for patients infected with COVID-19, and, as a result, to develop measures to protect their

*health. The questionnaires included 75 hospital employees specializing in the treatment of COVID-19, that is, at least 15% of the total number of employees. Using a survey, hospital staff specializing in treating patients infected with COVID-19 identified cases at high risk of contracting the disease and developed measures to protect their health.*

**Key words:** COVID-19, labor process, working conditions, workers' health, questionnaires.

**Kirish:** Fanga ma'lumki 2019-yilning ohiriga kelib Xitoyning Vuhanda (Wuhan) viloyatida birinchi bor og'ir respirator sindrom bilan kuzatiluvchi (SARS-CoV-2) yangi koronavirus bilan kasallanish holatlari aniqlandi [1]. Shundan so'ng virus dunyo bo'ylab tezda tarqala boshladi va PANDIMIYAgan sabab bo'ldi (Sohrabi va boshqalar, 2020) [3]. Amerik Qo'shma Shtatlari Mehnatni muhofaza qilish va sog'liqni saqlashni boshqarish (OSHA) tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan "Guidance on Preparing Workplaces for COVID-19" [1] qo'llanmasiga muvofiq ishchilarga SARS-CoV-2ning ta'siri klassifikatsiyasi ishlab chiqilgan va mazkur klassifikatsiya bo'yicha o'ta yuqori daraja, yuqori daraja, o'rta daraja, past daraja kabilarga ajratilgan. Mazkur klassifikatsiyaning o'ta yuqori darajasiga shifokorlar, hamshiralari, stomatologlar, paratibbiyot xodimlari, tez tibbiy yordam shifokorlari, laboratoriya xodimlari hamda patalogik anatomiya mutaxassislari kiritilgan. Pandimeya davrida faoliyat yuritgan tibbiyot xodimlari mehnat muhiti omillarining zararli va xavfliliqi bo'yicha 3-sinf, 3.3-darajadan kam bo'lmasligi ilmiy-tadqiqot ishlarida keltirilgan [4]. Epidemiologik jihatdan pandemiyanı boshlanish davrida, tibbiyot xodimlarini kasallanishida COVID-19 bilan kasallangan bemorlar asosiy kasallik manbai bo'lmasligi, aksincha tibbiyot xodimlari atipik bemorlar bilan munosabatda bo'lishi, kasallangan oila a'zolari, turli boshqa faoliyat turlari hamda hamkasblari bilan uchrashish kabi holatlar sabab bo'lganligi aniqlangan [5]. Boshqa bir tadqiqot ishida COVID-19 pandemiyasi tibbiyot xodimlarining ruhiy farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi, natijada ularda depressiya, tashvish va stress paydo bo'lganligi tavsiflangan hamda xulosada keltirilishicha COVID-19 pandemiyasi tibbiyot xodimlari orasida depressiya, tashvish va stressni

kuchaytiradigan asosiy omil bo'lib xizmat qilishi mumkinligi keltirilgan [2].

**Tadqiqot ishi maqsadi:** COVID-19 bilan kasallangan bemorlarni davolovchi va parvarishlovchi tibbiyot xodimlari mehnat sharoitlarini o'rganish va natijada ular salomatligini muhofaza qilishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish ilmiy-tadqiqot ishini asosiy maqsadi sanaladi.

**Tadqiqotning ishi obyekti va predmeti:** Tadqiqot ishlari Toshkent shahridagi COVID-19 bilan kasallangan bemorlarni davolashga ixtisoslashgan tibbiyot muassasi Zangiota № 2-sonli shifoxonasida amalga oshirildi. Tibbiyot muassasasida davolanish sharoitlariga sanitari – gigiyenik baho berish bo'yicha tadqiqot ishlari bemorlar bo'ladigan asosiy joylarda – qabulxonada, palatalarda, intensiv bo'limlarda, saralash maydonchalarida va b. xonalarda o'tkazildi. Tadqiqotning asosiy qismi Toshkent tibbiyot akademiyasi va Koreya Universiteti hamkorligida tashkil etilgan "TTA-KU hamkorligidagi ilmiy markaz"da olib borildi. Gigiyenik sharoitlarning ko'rsatkichlari sifatida quyidagilar: kunning turli vaqtlarida mikroiqlim ko'rsatkichlari (harorat, namlik, havoning harakat tezligi), havoning antropogen ifloslanishi darajasi (karbonat angidrid ( $\text{CO}_2$ ) konsentratsiyasi), ichki muhit havosini mayda dispersli changlar bilan ifloslanish holati (PM-10 va PM-2.5) o'rganiladi. Ushbu omillar bo'yicha tadqiqot usullari, asosan, umumqabul qilingan, TTA-KU hamkorligidagi ilmiy markaz laboratoriya-sida mavjud bo'lgan asbob-uskunalaridan foydalanildi: havoning harorati, nisbiy namlik va harakat tezligi "Metioskop-M" uskunasi yordamida, karbonat angidrid konsentratsiyasi "Thermo-hydro- $\text{CO}_2$  metr" uskunasi yordamida, Formaldegid "PM Formaldemetr" uskunasi yordamida, mayda dispersli changlar "PM - Mass Monitor" uskunasi yordamida tekshiriladi. Kasalxonada ishlovchi tibbiyot xodimlar

mehnat jarayonining og'irligi va keskinligi, mehnat sharoitlarining zararlilik va xavflilik ko'rsatkichlarining gigiyenik tavsifalash ishlari jarayonda sanitar-kuzatish usuli yordamida amalga oshirildi.

**Tadqiqot usullari:** Mazkur tadiqoqot ishida sanitariy-kuzatish va tavsifiy, laborator va instrumental, statistik usullaridan foydalanildi.

**Asosiy qism:** COVID-19ni davolashga ixtisoslashgan shifoxona ichki muhit havosi va

sirt yuzalarni virus bilan zararlanganligini hamda shifoxona ichki muhit havosi gigiyenik omillarini o'rganish paytida xodimlar salomatligini o'rganish hamda baholash maqsadida anonim anketa so'rovnomalari (keyingi o'rnlarda - So'rovnoma) dan foydalanildi. So'rovnomalarga umumiylar xodimlar sonining kamida 15 % qamrab olindi ya'ni jami 75 nafar xodim qatnashdi.

**1-jadval.**

**COVID-19 bilan kasallangan bemorlarni davolashga ixtisoslashgan Zangiota 2-sonli  
kasalxonasida ishlovchi anonim so'rovnomada ishtirok etgan xodimlar  
ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlari (N=75)**

Ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar	Ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar tavsifi	Soni (N=75)	Foizi (%)
Jinsi	Erkak	34	45,3
	Ayol	41	54,7
Yosh guruhlari	18-24	14	18,7
	25-34	37	49,3
	35-44	22	29,3
	45-54	2	2,7
	Oila qurmagan	14	18,7
Oilaviy ahvoli	Oilali	60	80,0
	Ajtrashgan	1	1,3
	Oliy	39	52,0
Ma'lumoti	O'rta-maxsus	36	48,0
	1-10 yil	51	68
Ish stagi	11-20 yil	22	29,3
	21<	2	2,7
	Davolovchi shifokor	37	49,3
Tibbiyot xodimi ish turi	Hamshira	12	16,0
	Qabulxona xodimi	3	4,0
	Laboratoriya xodimi	9	12,0
	Boshqa*	2	2,7
	Ambulatoriya	25	33,3
Tibbiyot xodimi ishlaydigan bo'lim	Jonlantirish	31	41,3
	Qabulxona	11	14,7
	Laboratoriya	7	9,3
	Boshqa*	1	1,3

\*rentgen/radiologiya, sanitar-tozlash kabi faoliyat va bo'lim turlari kiradi.

1-jadvalga muvofiq so'rovnomada 34 (43,5%) nafar erkaklar hamda 41 (54,7%) nafar ayollar qatnashdi. Yosh guruhlariga nisbatan olinganda 18-24 yoshdagilar 14

(18,7%) nafarni, 25-34 yoshdagilar 37 (49,3%) nafarni, 34-44 yoshdagilar 22 (29,3%) nafarni hamda 45-54 yoshdagilar 2 (2,7%) nafarni tashkil qildi. Oilaviy ahvoliga

ko'ra oila qurmaganlar soni 14 (18,7%) nafar, oilalailar 60 (80%) nafarni hamda ajrashganlar 1 (1,3%) nafarni tashkil qildi. So'rovnomada qatnashganlarni 39 (52%) nafari oliy ma'lumotli hamda 36 (48%) o'rta ma'lumotli ekanligi ma'lum bo'ldi. Ish stajiga nisbatan ko'rsatkichlar 1-10-yil stajga ega bo'lganlar soni 51 (68%) nafar, 11-20-yil ishlagan xodimlar 22 (29,3%) hamda 21-yil va undan ortiq ish stajiga ega bo'lganlar 2 (2,7%) ni tashkil qildi. Tibbiyat xodimlari ish turiga ko'ra 37 (49,3%) nafari davolovchi shifokor, 12 (16%) hamshira, 3 (4%) nafar qabulxona xodimlari (yordamchi xodimlar), 9 (12%) laboratoriya xodimlari hamda qolgan 2 nafari boshqa xodinlar (rentgen/radiologiya va sanitari tozalash kabi faoliyat bilan shug'ullanuvchi xodinlarni tashkil qildi. 75 nafar xodimdan 25 (33,3%) nafari ambulatoriyada, 31 (41,3%) jonlantirish bo'limida, 11 (14,7%) qabulxonada, 7 (9,3%) laboratoriyyada hamda 1 (1,3%) nafar xodim sanitari-tozalash xodimi sifatida ishlayotganligi ma'lum bo'ldi.

Anketa so'rovnomasida navbatdagi qismi COVID-19 bilan kasallangan bemorlarni davolashga ixtisoslashgan Zangiota 2-sonli kasalxonasida ishlovchi tibbiyat xodimlari salomatligiga COVID-19 ta'siri holatini baholashga qaratildi (2-jadval). Bunda ma'lum bo'lishicha tadqiqot o'tkazish davrida 16 nafar (21,3%) kasalxona xodimi COVID-19 kasalligi bilan kasallangna, 59 nafar (78,7%) xodim kasallanmaganligi ma'lum qiligan. 58 nafar xodim (77,3%) COVID-19 bilan kasallangan bemor bilan to'g'ridan-to'g'ri (1 metr) aloqada bo'lgan, 6 nafari (8%) 1 metr masofada aloqada bo'limganligini, qolgan 11 nafar (14,7%) xodim bilmasligini ma'lum qilgan. 58 nafar (77,3%) xodim COVID-19 bilan zararlangan yuza bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lganligini bayon qilgan bo'lsa, 6 nafari (8%) 1 metr masofada aloqada bo'limganligini, qolgan 11 nafar (14,7%) xodim bilmasligini ma'lum qilgan.

### *2-jadval.*

#### **COVID-19 bilan kasallangan bemorlarni davolashga ixtisoslashgan Zangiota 2-sonli kasalxonasida ishlovchi tibbiyat xodimlari salomatligiga COVID-19 ta'siri holatini baholash (N=75)**

<b>COVID-19 ni tibbiyat xodimlari salomatligiga ta'siri holati</b>		<b>Soni</b>	<b>Foizi</b>
COVID-19 bilan kasal bo'lganmisiz	Ha	16	21,3
	Yo'q	59	78,7
	Bilmayman	0	0
COVID-19 bilan kasallangan bemor bilan to'g'ridan-to'g'ri (1 metr) aloqada bo'lganmisiz	Ha	58	77,3
	Yo'q	6	8,0
	Bilmayman	11	14,7
COVID-19 bilan zararlangan yuza bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqada bo'lganmisiz	Ha	58	77,3
	Yo'q	6	8,0
	Bilmayman	11	14,7
Aerozol hosil qiluvchi jarayonda qatnashganmisiz	Ha	32	42,6
	Yo'q	43	57,7
Biologik suyuqlik/nafas olish sekretsiyasi bilan tasodifiy kontaktda bo'lganmisiz	Ha	12	16,0
	Yo'q	47	62,7
	Bilmayman	16	21,3

COVID-19 virusini shifokorlar ish jarayonlarida yuqtirib olish xavfini tahlil qilish uchun Aerozol hosil qiluvchi jarayonda qatnash-

ganmi yoki yo'qligini o'rgandik, bunda 32 nafar (42,6%) xodim "ha" deb, qolgan 43 nafar (57,7%) xodim "Yo'q" deb javob berdi hamda

Biologik suyuqlik/nafas olish sekretsiyasi bilan tasodifiy kontaktda bo'lganmisiz savoliga 12 nafar (16%) xodim "Ha", 47 nafari (62,7%) "Yo'q", hamda 16 nafai (21,3%) yo'q deb jabob berdi.

Dunyo olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, COVID-19ni

xodimlar yuqtirib olishida ShHV katta ahamiyatga ega, shuning uchun biz 3-jadvalga muvofiq COVID-19 bilan kasallangan bemorlarni davolashga ixtisoslashgan Zangiota 2-sonli kasalxonasida ishlovchi tibbiyot xodimlarining shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish holatini baholashga harakat qildik.

### **3-jadval.**

#### **COVID-19 bilan kasallangan bemorlarni davolashga ixtisoslashgan Zangiota 2-sonli kasalxonasida ishlovchi tibbiyot xodimlarining shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish holatini baholash (N=75)**

<b>Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish holati ko'rsatkichlari</b>	<b>Soni</b>	<b>Foizi</b>
COVID-19 bilan kasallangan bemorga g'amxo'rlik qilishda aerozol ishlab chiqarish jarayoni paytida shaxsiy himoya vositalaridan foydalandingizmi	Ha	66
	Yo'q	9
COVID-19 bemor bilan o'zaro aloqada bo'lganingizda ShHVdan foydalandingizmi	Ha	73
	Yo'q	2
Agar niqobingiz nam bo'lib qolsa, niqobingizni olib tashladingiz va almashtirdingizmi	Ha	73
	Yo'q	2
Nam ShHVlarni chiqindi qutisiga tashladingizmi	Ha	74
	Yo'q	1
ShHVni yechib tashlaganingizdan so'ng qo'l gigiyenasiga amal qildingizmi	Ha	74
	Yo'q	1
Siz COVID-19 bo'yicha o'qitish (treningdan) (xizmat davomida, onlayn) o'tganmisiz	Ha	47
	Yo'q	27
	Bilmayman	1

Jami 75 nafar xodimdan, 66 nafari (88%) COVID-19 bilan kasallangan bemorga g'amxo'rlik qilishda aerozol ishlab chiqarish jarayoni (AGP) paytida shaxsiy himoya vositalaridan foydalangan, qolgan 9 nafari (12%) ShHV lardan foydalanmagan, 73 nafar (97,3%) xodim COVID-19 bemor bilan o'zaro aloqada bo'lganida ShHVdan foydalangan bo'lsa, 2 nafar (2,7%) ShHVdan foydalanmagan. Agar niqobingiz nam bo'lib qolsa, niqobingizni olib tashladingiz va almashtirdingizmi savoliga 73 nafar (97,3%) xodim "Ha", qolgan 2 nafar (2,7%) xodim "Yo'q" deb javob bergan. Nam ShHVlarni chiqindi qutisiga tashladingizmi savoliga 74 nafar (98,7%) xodim "Ha", 1 nafari (1,3%) xodim "Yo'q" deb javob bergan. 74 nafar xodim (98,7%) ShHVni yec-

hib tashlagandan so'ng qo'l gigiyenasiga amal qilgan, 1 nafar (1,3%) amal qilmagan, 75 nafar xodimdan 47 nafari (62,7%) COVID-19 bo'yicha o'qitish (treningdan) (xizmat davomida, onlayn) o'tgan bo'lsa 27 nafar xodim (36,0%) bunday treninglardan o'tmaganligini va 1 nafar xodim (1,3%) bilmayman deb javob bergan.

4-jadvalga muvofiq COVID-19 bilan kasallangan bemorlarni davolashga ixtisoslashgan Zangiota 2-sonli kasalxonasida ishlovchi tibbiyot xodimlarini bemorlar bilan o'zaro aloqa paytida shaxsiy himoya vositalari elementlaridan foydalanish holatini baholashga harakat qildik. Barchaga ma'lumki, COVID-19 infeksiyasi epidemiologik jihatdan yuqumli kasallik bo'lganligi uchun pandimeya davrida

barcha xodimlar ShHVlaridan to'liq foydalanishi zarurligi talab etilgan, shunga muvofiq anketa-so'rovnomasini natijalariga ko'ra ma'lum bo'ldiki, COVID-19 bilan kasallangan bemorlar bilan o'zaro aloqa paytida shaxsiy himoya vositalari elementlaridan foydalanish

doimo (ish jarayoni 50%-95% vaqtida), ba'zida (ish jarayoni 20%-50% vaqtida), kamdan-kam (ish jarayoni 20% va undan kam vaqtida) hamda bilmayman deba javob berган vaziyatlar mavjud bo'lgan.

#### 4-jadval.

#### **COVID-19 bilan kasallangan bemorlarni davolashga ixtisoslashgan Zangiota 2-sonli kasalxonasida ishlovchi tibbiyot xodimlarini bemorlar bilan o'zaro aloqa paytida shaxsiy himoya vositalari elementlaridan foydalanish holatini baholash (N=75)**

Shaxsiy himoya vositalari elementlari	Doimo (ish jarayoni 95% va undan yuqori vaqtida)	Doimo (ish jarayoni 50%-95% vaqtida)	Ba' zida (ish jarayoni 20%-50% vaqtida)	Kamdan-kam (ish jarayoni 20% va undan kam vaqtida)	Bilmayman
Himoya qo'lqoplari	61 (81,3)	12 (16,0)	1 (1,3)	0 (0)	1 (1,3)
N95 himoya niqobi	27 (36)	40 (53,3)	7 (9,3)	0 (0)	1 (1,3)
Yuz qalqoni yoki himoya ko'zoynaklari	24 (32)	43 (57,3)	7 (9,3)	1 (1,3)	0 (0)
Bir marta kiyiladigan xalat (kombinzon)	43 (57,3)	26 (34,7)	4 (5,3)	1 (1,3)	0 (0)
Suv o'tkazmaydigan apron	19 (25,3)	22 (29,3)	29 (38,7)	5 (6,7)	0 (0)
COVID-19 boshqa bemor bilan o'zaro aloqadan so'ng	45 (60)	27 (36)	3 (4)	0 (0)	0 (0)
Tozalash yoki aseptik jarayon bajarilgandan so'ng	19 (25,3)	47 (62,7)	9 (12)	0 (0)	0 (0)
Bemor tanasi yoki biologik suyuqlik ta'siridan so'ng	24 (32)	37 (49,3)	10 (13,3)	1 (1,3)	3 (4)
COVID-19 bemor atrof yuzalari bilan aloqadan so'ng	17 (22,7)	42 (56)	12 (16)	3 (4)	1 (1,3)
Yuqori kontakt yuzalar zararsizlantirish holati	25 (33,3)	37 (49,3)	11 (14,7)	1 (1,3)	1 (1,3)

Bundab xulosa qilishimiz mumkinki, xodimlar ish jarayonida COVID-19 infeksiyasini yuqtirib olish xavflari mavjud bo'lgan.

COVID-19 bilan kasallangan bemorlarni davolashga ixtisoslashgan kasalxona xodimlari anketa-so'rovnomalari yordamida kasallikni yuqtirib olishi xavfi yuqori bo'lgan holatlar 5-jadval muvofiq aniqlandi.

COVID-19 bilan kasallangan bemorlarni davolashga ixtisoslashgan kasalxona xodimlari anketa-so'rovnomalari yordamida kasallikni yuqtirib olishi xavfi yuqori bo'lgan holatlar, ya'ni xodimlarni yosh guruhlari, ma'lumoti, tibbiyot xodimi ishlaydigan bo'lim, xodimlarni bemorlarga ko'rsatadigan tibbiy muolajalari paytida ShHVlardan foydalanish holati, ularni COVID-19 bo'yicha malaka oshirish (trening) dan o'tganligi hamda bemor bilan yuzma-yuz 1 metr masofada aloqada bo'lganligi, ular salomatligini muhofaza qilishda asosiy rol o'ynaydi va mazkur holatlarni xodimlar salomatligini muhofaza qilishda birinchi o'rinda inobatga olinishi xodimlarni orasida kasallanish holatlari kamayishi hamda nogironlik kelib chiqishini oldini oladi.

COVID-19 bilan kasallangan bemorlarni davolashga ixtisoslashgan kasalxona xodimlari anketa-so'rovnomalari yordamida kasallikni yuqtirib olishi xavfi yuqori bo'lgan holatlar, ya'ni xodimlarni yosh guruhlari, ma'lumoti, tibbiyot xodimi ishlaydigan bo'lim, xodimlarni bemorlarga ko'rsatadigan tibbiy muolajalari paytida ShHVlardan foydalanish holati, ularni COVID-19 bo'yicha malaka oshirish (trening) dan o'tganligi hamda bemor bilan yuzma-yuz 1 metr masofada aloqada bo'lganligi, ular salomatligini muhofaza qilishda asosiy rol o'ynaydi va mazkur holatlarni xodimlar salomatligini muhofaza qilishda birinchi o'rinda inobatga olinishi xodimlarni orasida kasallanish holatlari kamayishi hamda nogironlik kelib chiqishini oldini oladi.

**5-jadval.**

O'zgaruvchilar	Crude odds ratio*	CI = 95%	P
Jinsi	1,269	,420 – 3,838	,673
Yosh guruhlari	2,345	1,032 – 5,330	,042
Ma'lumoti	4,375	1,260 – 15,196	,020
Ish stagi	4,004	,868 – 18,481	,075
Tibbiyot xodimi ishlaydigan bo'lim	,717	,535 – ,961	,026
COVID-19 bilan kasallangan bemorga g'amxo'rlik qilishda aerosol ishlab chiqarish jarayoni (AGP) paytida shaxsiy himoya vositalaridan foydalandingizmi	6,250	1,443 – 27,061	,014
COVID-19 bemor bilan o'zaro aloqada bo'lganingizda ShHVdan foydalandingizmi	,564	,273 – 1,168	,123
ShHVni yechib tashlaganingizdan so'ng qo'l gigiyena-siga amal qildingizmi	,000	,000	,999
Siz COVID-19 bo'yicha o'qitish (treningdan) (xizmat davomida, onlayn) o'tganmisiz	,116	,032 – ,416	,001
COVID-19 bemor bilan yuzma-yuz (1 metr atrofida) aloqada bo'lganmisiz	,362	,181 – ,723	,004

**P<0,05** – o'zgaruvchi va ta'sir omili orasida bog'liqlik mavjud; **P>0,05** – o'zgaruvchi va ta'sir omili orasida bog'liqlik mavjud; \* **Crude Odds Ratio** – bu ma'lum bir ta'sir ko'rsatilsa, nati-janining yuzaga kelishi ehtimolini ifodalaydi; **CI = 95%** – ishonch oralig'i; **P-Value** – ishonchlilik darajasi.

**Xulosa:** COVID-19 bilan kasallangan bemorlarni davolashga ixtisoslashgan ka-salxona xodimlari anketa-so'rovnomalari yordamida kasallikni yuqtirib olishi xavfi yuqori bo'lgan holatlar, ya'ni xodimlarni yosh guruhlari, ma'lumoti, tibbiyot xodimi ishlaydigan bo'lim, xodimlarni bemorlarga ko'rsatadi-gan tibbiy muolajalari paytida ShHVlardan foydalanish holati, ularni COVID-19 bo'yicha malaka oshirish (trening) dan o'tganligi hamda bemor bilan yuzma-yuz 1 metr maso-fada aloqada bo'lganligi, ular salomatligini muhofaza qilishda asosiy rol o'ynaydi va maz-kur holatlarni xodimlar salomatligini muhofaza qilishda birinchi o'rinda inobatga olinishi xodimlarni orasida kasallanish holatlari ka-mayishi hamda nogironlik kelib chiqishini ol-dini oladi.

**Adabiyotlar.**

1. Гребеньков.В., Батов В.Е., Кузнецов С.М., Оценка условий труда медицинских работников военно-медицинских организаций в период пандемии новой коронавирусной инфекции. Медио биологические и социально-психологические проблемы безопасности в чрезвычайных ситуациях.2021. №3. 35–34–40 стр;

2. Alhouri.A., Abu Shokor. M., Marwa. K., Sharabi. A., Mohammad Nazir Arrouk. D., Al Houri. F. N., Al Houri. H. COVID-19 and Its Impact on Healthcare Workers: Understanding Stigma, Stress, and Quality of Life. Cureus, (2023). 15(4), e37846. <https://doi.org/10.7759/cureus.37846>

3. Bielicki. Julia. A et al. "Monitoring approaches for health-care workers during the COVID-19 pandemic." The Lancet. Infectious diseases vol. 20.10 (2020): e261–e267. doi:10.1016/S1473-3099(20)30458-8

4. Ng.K., Poon.B., H., Kiat. Puar.H., Shan Quah. J. L., Loh. W. J., Wong, Y. J., Tan.T. Y., Raghuram. J. COVID-19 and the Risk to Health Care Workers: A Case Report. Annals of internal medicine, (2020) 172 (11), 766–767. <https://doi.org/10.7326/L20-0175>;

5. Harrison A.G., Lin T., Wang P., Mechanisms of SARS-CoV-2 Transmission and Pathogenesis. Trends in immunology, (2020). 41 (12), 1100–1115. <https://doi.org/10.1016/j.it.2020.10.004>;

6. U.S. Department of Labor Occupational Safety and Health Administration OSHA 3990-03 2020 Guidance on Preparing Workplaces for COVID-19 ([osha.gov](http://osha.gov)).